



МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA MUSIQALI SAHNALASHTIRISH ASOSIDAGI FAOLIYATLARNI TASHKIL ETISHNING SHAKL, USUL VA VOSITALARI

*Nurmatova Iroda Toxtasinovna - Nizomiy nomidagi TDPU
"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası o'qituvchisi
irodanur@inbox.ru*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqali sahnalashtirish asosidagi faoliyatlarni tashkil etishning ahamiyati, shakl, usul va vositalari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar bilan musiqali sahnalashtirish asosidagi faoliyatlarni tashkil etish maktabgacha pedagogikaning dolzarb muommolaridan biri hisoblanadi. Musiqali sahnalashtirilgan faoliyatlar jarayonida bolaning ijodiy shaxsi va uning faolligi har tomonlama rivojlanadi. Ushbu maqolada musiqali sahnalashtirish asosidagi faoliyatlarini tashkil etishda bolaning ijodiy faoliyatini rivojlanishi haqida fikr mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: Tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, usul, vosita, teatr, spektakl, integratsiya, improvizatsiya, drammatizatsiya.

THE FORM OF ORGANIZING ACTIVITIES BASED ON MUSICAL STAGING, METHODS AND TOOLS

Abstract: This article provides information about the importance, forms, methods and means of organizing activities based on musical staging in preschool educational organizations. Organizing activities based on musical staging with students in preschool educational organizations is one of the urgent problems of preschool pedagogy. In the process of musically staged activities, the child's creative personality and his activity develop in every way. This article discusses the development of a child's creative activity in the organization of activities based on musical staging.

Key words: Teacher, student, method, tool, theater, production, integration, improvisation, dramatization.

Musiqqa – inson yuragiga juda chuqur kirib boruvchi yuksak san'at tiri bo'lib, qalb tug'yonini yorqin ifodalash qudratiga ega. Musiqqa san'ati jamiyatning umumiy madaniy rivojida katta hissa qo'shib, insonning yoshligidan unga bevosita va kuchli



ta'sir o'tkazadi. Musiqiy ta'lim – bu turli xil faoliyat turlarining sintezi bo'lib, musiqiy ta'lim jarayoni musiqiy faoliyatning barcha turlarini, shu jumladan sahnalashtirishni ham o'z ichiga oladi. Boshqa faoliyat turlari bilan bir qatorda musiqali sahnalashtirish faoliyatlari bolaning ijodiy qobiliyatlari, majoziy tafakkurini rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Musiqali sahnalashtirilgan faoliyatlarni tashkil etish katta ahamiyat kasb etadi, musiqa bola qalbida kuchli emotsional his-tuyg'uni uyg'otadi. Musiqa orqali bolalarning badiiy idroki o'sib, hissiyotni yanada boyitib boradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqali sahnalashtirilgan faoliyatni tashkil etish shakllari har xil bo'lishi mumkin. Tomosha tayyorlashga qaratilgan faoliyat jarayonida bolalar jamoaviy hamkorlik va o'zaro munosabatlar qurish tajribasiga ega bo'ladilar, ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtiradilar. Bu – maktabga psixologik tayyorlashning ajralmas qismi hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqali sahnalashtirilgan faoliyat kunning istalgan vaqti davomida, shuningdek, musiqa, nutq o'stirish, atrof-olam, tasviriy san'at kabi haftalik mashg'ulotlarga singdirilgan holda tashkil etilishi mumkin. Musiqali sahnalashtirish faoliyatni tashkil etishning asosiy shakllari: mashg'ulotlar, bolalar bilan yakka tartibdagi (individual) ishlar, kattalar va bolaning birgalikdagi faoliyati, bolalarning mustaqil faoliyati, to'garaklar ishi, bayramlar va ko'ngilochar, sahnalashtirilgan o'yinlardan iborat.

Musiqali sahnalashtirish asosidagi mashg'ulotlarning turlari:

- Namunaviy – teatr-o'yin faoliyati unsurlari, ohangli plastika, badiiy-nutqiy faoliyat, teatr alifbolaridan iborat;
- Ustuvor (dominant) – unda yuqorida keltirilgan faoliyat turlaridan biri ustunlik qiladi;
- Mavzuviy – unda sanab o'tilgan barcha faoliyat turlari har qanday umumiy mavzuni tahlil qilish orqali birlashtiriladi;
- Mujassam (kompleks) – san'atning har xil turlarini (teatr, xoreografiya, musiqa, she'riyat, tasviriy san'at) muhokama qilish va o'rganish, ularni tahlil etish va turli asarlarda qo'llanilishini baholash;
- Integratsiyalashgan – bu yerda nafaqat badiiy faoliyat, balki boshqa har qanday faoliyat (masalan, boshqa mashg'ulotlardagi kichik o'yinlar) asosiy faoliyat turi sifatida harakat qilishi mumkin);
- Mashq qilish – spektaklni mashq qilish.

Musiqali sahnalashtirish asosidagi faoliyatlar bolalar ilk ijodiyotining eng keng tarqalgan turi bo'lib turli faoliyatlar asosida tashkil etiladi:



Mashg‘ulotlar. Mashg‘ulotlar faqatgina turli tadbirlarga tayyorlanish uchun emas, balki o‘rganish, ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi va o‘zida bularning hammasini mujassam etishi lozim. Ularning mavzusi, shakl va usullari yagona maqsadga qaratilgan bo‘lishi va o‘zida nutqni shakllantirishi, musiqali sahnalashtirilgan ijrochilik faoliyat ko‘nikmalari va ijodkorlik muhitini shakllantirish, bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi kabi asosiy uch maqsadni o‘ziga qamrab oladi. Shuning uchun mashg‘ulot davomida bolalarni matn bilan tanishtirish, ertak yoki biror asarni o‘rganish, mimika, harakat imkoniyatlari bilan yaqindan tanishtirish va bularning barchasini mashg‘ulot davomida takrorlash imkoniyatini beradi.

Musiqali sahnalashtirish faoliyati bo‘yicha mashg‘ulotlar majmuyini amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

–maktabgacha yoshdagi bolaning ijodiy qobiliyat va ijodiy mustaqillikni rivojlantirish;

–ijodiy faoliyat turlariga qiziqishni rivojlantirish;

–improvizatsiya ko‘nikmalarini egallash;

–nutq faoliyatining barcha komponentlari, funksiyalari va shakllarini rivojlantirish; o‘rganish jarayonlarini takomillashtirish.

Qo‘g‘irchoq tomoshalarini ko‘rish va tomosha haqida suhbatlashish, drammatizatsiyalashgan o‘yinlar, kichik ertak va inseniroykalkarni takroran ijro etish, ijroning ifodaliligini shakllantiruvchi mashqlar (verbal va noverbal), bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantiruvchi mashqlarning barchasini musiqali sahnalashtirilgan mashg‘ulotlar o‘z ichiga qamrab oladi.

Shu bilan birga musiqali sahnalashtirilgan mashg‘ulotlar bolalarda o‘ziga ishonch, ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish, u yoki bu asar qahramoni holatiga kirishda o‘zini ko‘rsata olish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi. Buning uchun mashg‘ulot davomida turli imkoniyatlardan foydalanish zarur:

– bolalarga o‘zlari istagan rolni tanlashga imkon berish;

– bosh rolga faol bolalar bilan birga uyatchan va tortinchoq bolalarni ham jalb etish;

–ixtiyoriy tanlov asosida rol taqsimlash (bolalar tarbiyachi qo‘lidan personajlarning nomi yozilgan ixtiyoriy kartochkani tanlaydilar);

– hamma bolalar tomonidan tomosha qahramonlarini navbat bilan almashib ijro etish.



Bolalarning «muntazam ishtirok etuvchi» va rol ijro etuvchilarni «muntazam tomosha qiluvchi», ya'ni «ishtirokchi va tomoshabin» kabi guruhlariga bo'linib qolishi qat'iy man etiladi. Mashg'ulot davomida bolalarda sahnaga chiqishdan qo'rqish kabi tushunchalar paydo bo'lishining oldini olish lozim. Shuning uchun tarbiyachi bolaga biror qahramonni ijro etib berish yoki ko'rsatib berish topshirig'ini berayotganda uning ichki imkoniyatlarini ham inobatga olishi lozim. Buning uchun tarbiyachi oldida muhim ikki vazifa turadi: bolaning ichki kechinmalari, o'y-xayollari nima bilan bandligini, fikrlari qanchalik jiddiylikni tushunish, anglashga harakat qilish; bolaga o'z imkoniyatlarini to'la ko'rsata olishga imkoniyat berish, uning faolligini oshirish maqsadida unga alohida sharoit yaratish. Musiqali sahnalashtirish faoliyatini tashkil qilish shakllari turlicha bo'lishi mumkin:

Yakka holda ishlash. Tarbiyachi va bola o'rtasida individual ish jarayonida yaqin aloqa yuzaga keladi. Bu – tarbiyachiga bolaning kechinmalari nimaga qaratilganligi (ular qanchalik chuqur va jiddiy ekanligini) tushunish, bolaning his-tuyg'ularini chuqurroq o'rganish; bilimlardagi kamchiliklarni aniqlashga, ularni tizimli ish orqali bartaraf etishga yordam beradi. Individual ishlash bolani kelgusi faoliyatga tayyorlashga yordam beradi (dramatizatsiya o'yini, mashg'ulot, sahna o'yini). Individual ishlash jarayonida keyingi faoliyatdagi bilim, ko'nikma va malakalar to'ldiriladi, umumlashtiriladi, mustahkamlanadi va tizimlashtiriladi.

Bolalarning mustaqil musiqiy faoliyati. Atrof-muhitdan olingan taassurotlar ta'siri ostida maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil o'yinlari paydo bo'ladi. Shuning uchun to'laqonli o'yin faoliyatining paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun bolalarning taassurotlarini oziqlantirish kerak. Kattalar va bolalar ijrosidagi turli spektakllar (qo'g'irchoq va drama) bolalarda katta taassurot qoldirib, ularga zavq bag'ishlaydi. Bolalar o'z o'yinlarida o'zlari eslab qolgan va eng qiziqqan voqealarni o'ynashni, hikoyalarni qaytadan boshdan kechirishni, ularni o'zgartirishni va o'zlariga xos tarzda tizib chiqishni xohlaydi. Ko'pincha bolalar bo'g'irsoq haqidagi hikoyani takrorlaydilar, O'rmondagi uycha haqidagi ertakda rollarni mustaqil ravishda belgilaydilar, u yoki bu qahramonning paydo bo'lish tartib qoidalariga qat'iy rioya qiladilar.

Bayramlar va o'yin-kulgu soatlari. Bayram bolalarning musiqali teatr faoliyatini tashkil etishning samarali shakli bo'lishi uchun quyidagilar zarur: bolalar bilan muntazam kundalik ishlarni olib borish, ularning didi, qobiliyatlari, musiqiy, tasviriy, badiiy va nutqdagi ijodiy faolligini rivojlantirish, ularning ko'nikmalarini o'zlashtirishlariga e'tibor qaratish. Bayramlar, o'yin-kulgu singari har bir kishiga



o‘z badiiy qobiliyatlari, ijodiy faolligini ko‘rsatish imkoniyatini berishi, quvonch keltirishi kerak.

Bolalarning ota-onalari bilan birgalikda teatrlarga tashrifi. Bolalikdanoq bolalarni teatr san‘ati bilan tanishtirish mumkin. Ota-onalarning bolalarni san‘at bilan tanishtirish jarayonida ehg muhim vazifalari – farzandlarida tomoshabin madaniyatini shakllantirishlari kerak. Bu madaniyat quyidagilardan iborat: teatr san‘atining xususiyatlarini bilish; teatr badiiy obrazini yaratish jarayonida tomoshabinning rolini tushunish; sahna harakati jarayonida aktyorlar bilan o‘zaro munosabat ko‘nikmalarini egallash.

Teatrlashtirilgan o‘yinlar-spektakllar va teatrlashtirilgan tomoshalar. Teatr o‘yinlari va harakatlar bolalarda katta qiziqish uyg‘otadi. Teatr o‘yinlarining bolaning shaxsiga ko‘p qirrali ta’siri ularni kuchli pedagogik vosita sifatida ishlatishga imkon beradi. O‘yin davomida bola o‘zini erkin va tabiiy his qiladi. Shunday qilib, o‘yin davomida bolalarda mustaqil harakatlar ko‘nikmalari shakllanadi, ular tashqi yordamsiz reja bo‘yicha fikr yuritish, turli vaziyatlarda harakat qila olish qobiliyatidan iborat.

To‘garak ishi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarning teatrlashtirilgan faoliyatini tashkil etish shakllaridan biri to‘garak ishi bo‘lib, u quyidagi vazifalarni hal qilishga yordam beradi: ijodning barcha turlarida: musiqiy o‘yin, badiiy nutq, raqs, bolalar tasavvuri, fantaziya, xotirani rivojlantirish; To‘garakning asosiy maqsadi rejissura, ssenariy yozish va bolalar “aktyorlar” bilan cheklanib qolmasdan, balki bolalar faoliyatining barcha turlari orqali ularda ijodiy faollikni shakllantirishga qaratilgan muammolarni hal qilish; bolalar bilan to‘garakda “aktyorlar”, “teatr odobi”, “tomoshabin madaniyati” mavzularida suhbatlar o‘tkazish; bolalarni musiqali sahnalashtirilgan faoliyatlarga jalb etish, ertak sahnalashtirish, hissiy kechinmalarni uyg‘otuvchi sahna obrazlarini yaratish.

Musiqali sahnalashtirish asosidagi faoliyatlarni tashkil etishda bolalarda mustaqillik, ijodkorlik faollik kabi fazilatlarni shakllantirish usullari qo‘llaniladi:

1. Bolani faollikka jalb qilish usuli – bu bolalarda musiqali teatr san‘atini o‘zlashtirishda ularning harakatlariga ijobiy motivatsiyaning paydo bo‘lishi. Ushbu usul maktabgacha yoshdagi bolalarning yangi materialni o‘zlashtirish jarayonida turli aqliy va amaliy faoliyatiga qaratilgan. Ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan ushbu o‘qitish usulining mohiyati bolalarning vazifalarni bajarishini ta’minlashdan iborat bo‘lib, ularni hal qilishda bolalar mustaqil ravishda ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.



2. Faol tinglash usuli – musiqani idrok etish uchun ishlatiladi. Musiqiy ta’lim faol idrok etishga asoslanadi. Bu musiqa asarini bir vaqtning o’zida tinglash va musiqiy ijro etuvchi tasvirning o’ziga xos xususiyatlarini uzatishidan iborat. Musiqiy idrok etish uchun teatrlashtirish, bolalar va tarbiyachi tomonidan musiqiy obraz o’ynaladi. Shu bilan birga, musiqaning xarakteriga qarab, harakatlarni individual tanlash, musiqadan ta’sirlanish qobiliyati, shuningdek, bolalarning faolligi, tasavvurini har tomonlama rivojlantirishga alohida e’tibor beriladi. Musiqani idrok etishda quyidagi metodik usullar eng samarali hisoblanadi: “Tingla va kuyla”, “Tingla va raqsga tush”, “Tingla va o’yna”, “Tingla va so’zla” va boshqalar.

3. Vaziyatlarni modellashtirish usuli – Bu usul bolalar bilan birgalikda syujet-modellar, etyudlar, vaziyat-modellarni yaratishni o’z ichiga oladi, ularda bolalar musiqali sahnalashtirilgan faoliyat usullarini o’zlashtiradilar.

4. Assotsiatsiyalar usuli Ushbu usul bolaning tafakkuri va tasavvurini assotsiativ taqqoslash bilan uyg’otishga imkon beradi, keyin paydo bo’lgan assotsiatsiyalar asosida yangi, assotsiativ obrazlarni yaratadi, musiqiy ijod asarlarini idrok etishni faollashtiradi, assotsiativ fikrlash va ijodiy tasavvur, bolalarning g’ayrioddiy g’oyalari va tasvirlarini yaratish qobiliyatini rivojlantiradi (masalan, “O’z tovushingni top”, bunda tarbiyachi turli kichik buyumlarni tayyorlaydi: kalitlar, mixlar, bankalar, shishalar, qog’ozlar, qoshiqlar, so’ng bolalar taklif qilinadi, bu narsalarni aralashtirib, ulardan turli tovushlarni ajratib olish, ularga yoqqan tembrni topish, so’ngra nima uchun bu tovushlarni tanlaganliklarini va ular idrok etilganda qanday tasvir, rang paydo bo’lishini tushuntirish);

5. O’yin usuli. Bolalarning butun hayoti o’yindan iboratligini hisobga olsak, har bir bola o’z rolini o’ynashni xohlaydi. Qiziqarli mustaqil, ijodiy shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishga hissa qo’shadigan va har bir bolaning individual moyilligining namoyon bo’lishini ta’minlaydigan sahnalashtirilgan o’yinlar ayniqsa samarali o’yin usuli bo’lib chiqadi. Bolalarning xulq-atvori o’zgarib boradi: faolroq bo’lishadi, harakatchan, bolalar o’z xohish-istaklarini, irodasini jamoa manfaatlariga bo’ysundirishni o’rganadilar, ya’ni o’zaro yordam, do’stga hurmat ruhida tarbiyalanadilar.

6. Improvizatsiya usuli. Bu usul bolalarda ijodiy mustaqillikni namoyon etish, faoliyat yo’nalishi va turini erkin tanlashga qaratilgan. Improvizatsiya jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Bolaning ijodiy faoliyatini rivojlantirish bilan bog’liq o’qitish, ta’lim vazifalari hal qilinadi. Improvizatsiya jarayonida bolalar ijodiy mahsulot



yaratadilar - ohanglar, raqs harakatlari, shuningdek, har qanday musiqa asarini instrumental ifoda etishadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning sahnalashtirilgan o‘yinlarini tom ma’noda san’at deb atab bo‘lmaydi. Spektakl qo‘yishda bolalar va haqiqiy rassomlarning faoliyati ko‘p umumiylikka ega. Bolalar tomoshabinlarning reaksiyasi haqida, tomoshabinga ta’siri haqida o‘ylaydilar, natija haqida qayg‘uradilar. Teatr o‘yinlarining tarbiyaviy ahamiyati ijodiy ijrochilikka faol intilishdadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Nurmatova I.T. Theatrical activity as a means of developing the creative abilities of younger preschoolers., Modern problems of science and yedugation., 15.12.2022.,136-140pp.International scientific and current research conferences.Virginiya.USA.
2. Nurmatova I.T. “Musiqiy teatrlashgan faoliyatlar orqali maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirish”. // "Yangi O‘zbekistonni barpo etishda san’at va madaniyatni rivojlantirishdagi muammo va echimlar". Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Farg‘ona. 2022 yil. 5 oktyabr. – B. 280.
3. Нурматова И.Т. “Роль педагога в организации театрализованной деятельности дошкольников”./“International sonference on yeducational innovations and sciences 2022/8" Toshkent.2022 Page No.: -R.168-171.
4. Nurmatova I.T.“Maktabgacha yoshdagi bolalarni musiqali teatrlashtirilgan o‘yinlar vositasida ijodiy faolligini rivojlantish”. // O‘zbekiston va xorijda maktabgachata’lim:kecha, bugun va ertaga. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Jizzax. 2022 yil. 14 oktyabr. – B. 310.
5. Nurmatova I.T. Development of creative activity of older preschool children by means of theaterized activity., european international journal of pedagogics.ISSN: 2751-000X., Pages: 20-25. SJIF – 5,983. <https://www.eipublication.com>.
6. Yakubova, Z. Z. (2023). NATIONAL VALUES OF PRESCHOOL CHILDREN BASICALLY FORMING EDUCATIONAL AND MORAL QUALITIES. European International Journal of Pedagogics, 3(01), 51-55.